KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 44 (574) 2025-YIL, 11-OKTABR

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI

O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korruptsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH:

MUHIM VAZIFALAR BELGILAB OLINDI

Andijon viloyati Jalaquduq tumanida "Korrupsiya – taraqqiyotga qarshi jiddiy xatar" mavzusida yig'ilish bo'lib o'tdi.

Tuman tibbiyot birlashmasida o'tkazilgan mazkur tadbirda birlashma rahbarlari, shifokor va hamshiralari, xalq deputatlari tuman kengashi deputatlari ishtirok etdi. Unda tibbiyot tizimida korrupsiyaning oldini olish, korrupsion holatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish, bu borada birlashma xodimlarining bilim va tushunchalarini boyitish xususida atroflicha so'z yuritildi.

Korrupsiya iqtisodiy yoki moliyaviy yo'qotishgina emas, balki u eng avvalo, insonlar ongini zaharlaydi, davlatga bo'lgan ishonchga putur yetkazadi. Shu bois, ushbu illatga qarshi kurashishda har bir fuqaro, tashkilot, rahbar shaxsiy mas'uliyatni chuqur anglashi zarur.

(Davomi 2-betda).





Prezidentimiz "Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar belgilab berdi. 2017-yil 4-yanvardan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni kuchga kirgani bu boradagi muhim qadam bo'ldi.

KORRUPSIYAGA BARHAM BERISH IQTISODIYOTIMIZNING JADAL RIVOJLANISHINI TA'MINLAYDI

Mazkur qonun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim huquqiy asos yaratdi. Bu davlat organlari, tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatining asosiy prinsiplari va yo'nalishlari mustahkamlangan. Unga ko'ra, qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va oshkoralik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplaridir.

(Davomi 2-betda).

UMR DAFTARIDAGI BEZAKLAR

OILA — JAMIYATNING ENG MUHIM VA BIRLAMCHI BO'G'INI. ER VA XOTIN ESA MUHABBAT VA SADOQAT DEB ATALMISH IKKI OLAMNING O'ZARO ITTIFOQIDAN IBORAT QO'RG'ONDIR. AYNI SHU MUQADDAS RISHTADA ANDIJON VA O'SHNI BIRLASHTIRGAN BIR MUHABBAT TARIXI MENI DOIM O'ZIGA TORTADI.

Eslayman, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarini 7-sinf paytimda o'qigandim. O'shanda men asardagi Kumush va Otabekning muhabbatiga qoyil qolgan, Oftoboyimga mehr qo'yib, Yusufbek hojiga cheksiz hurmat bilan qaraganman. Oradan yillar o'tdi. Sevimli asarim qahramonlarini hayotda ham uchratdim. Mana shungayam qariyb o'ttiz yilga yaqin vaqt bo'lyapti.

Qahramonim — Kumushbibiga qiyos qilganim Zumradxon Abdullayeva asli o'shlik. U bolaligidan kitobga mehr qo'ydi. Ko'zlari tiyran, nigohlari o'tkir, fikrlari ma'noli Zumradxonning ko'ngli o'zi kabi go'zal, quvvayi hofizasi yuksak edi.

Onalar ko'ngli olislarni ko'ra oladi. Munisxon aya qizi Zumradxondagi iste'dodni ilg'ay oldi, undagi ijodga bo'lgan qiziqishni hurmat qildi. Otasi ham ayolidagi ishonchni qo'llab-quvvatladi va neki sharoit bo'lsa, qizi uchun yaratib berdi. Maktabda esa ilk ustozi — ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Ulfatxon Ibragimova ham yangi buloq ko'z ochdi, deya unga alohida e'tibor qaratdi. Maktabda bo'ladigan turli tadbirlarda Zumradxon she'r o'qib, barchaning olqishiga sazovor bo'lar edi. "Qizim, sendan yaxshi shoira chiqadi. Albatta o'qigin, men senga ishonaman", deya o'quvchisiga umid bag'ishladi. Zumradxonni viloyatdagi "O'sh sadosi" (sobiq "Lenin yo'li") gazetasi qoshida ochilgan "Ilhom" to'garagiga olib bordi. Ularni bolalar yozuvchisi Tursunboy Adashboyev qarshi oldi va uning bolalarcha mashqlarini erinmay o'qib chiqdi va qizni to'garakka qabul qildi. Zumradxon shu ko'yi ushbu to'garakka olti yil qatnadi. Uning birinchi she'ri ham beshinchi sinfda o'qiyotganida "O'sh sadosi" (sobiq "Lenin yo'li") gazetasida chop etildi.



(Davomi 3-betda).

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI
O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH:

MUHIM VAZIFALAR BELGILAB OLINDI

(Davomi. Boshi 1-betda).

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yil 5-mart kuni bo‘lib o‘tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi yig‘ilishida korrupsiya masalasiga jiddiy e’tibor qaratish, ushbu illatga qarshi murosasiz kurashish bo‘yicha qator vazifalar belgilab berilgan edi. Ana shu vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida o‘tkazilgan yig‘ilishda so‘z olgan tuman Tibbiyot birlashmasi rahbari Ulug‘bek Umarov, xalq deputatlari tuman kengashi deputati Ergashboy Qurbonov va boshqalar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish, unga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, bu borada har bir fuqaro, xodimning burch va vazifalari xususida gapirildi.

Jumladan, tizimda korrupsiya va korrupsion holatlarni bartaraf etish, mazkur yo‘nalishdagi ishlar samaradorligini oshirish, targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirish yuzasidan taklif, fikr va mulohazalar bildirildi.

Shuningdek, birlashma xodimlarining bu boradagi bilim va tushunchalarini, ayniqsa, korrupsiya illati keltirib chiqaradigan ayanchli oqibatlar haqidagi tasavvurlarini yanada boyitish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish, targ‘ibot ishlarini kuchaytirish muhim ekanligi alohida qayd etildi.

– Korrupsiyaga qarshi kurash bu faqatgina davlat organlarining yoki bir guruh mutasaddilarning vazifasi bo‘lishi kerak emas, bu ish jamiyatning barcha qatlami vakillari, avvalo, aholining faol va ongli ishtiroki bilan amalga oshirilishi lozim, – deydi tuman tibbiyot birlashmasi rahbari Ulug‘bek Umarov. – Shundagina biz o‘zimiz kutgan natija va samaraga erisha olamiz.

Soha xodimlarining korrupsiya, unga qarshi kurashish borasidagi bilim va tushunchalarini boyitishga, mas’uliyatini oshirishga xizmat qilgan yig‘ilishda birlashma tizimida amalga oshiriladigan muhim vazifalar belgilab olindi.

F. UBAYDULLAYEV,
Z. UMRZOQOV (surat),
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zolari.

Aytish joizki, qanchalik tashvishli bo‘lmasin so‘nggi yillarda respublikamiz hududida firibgarlik jinoyatlarining salmog‘i birmuncha oshganligi kuzatilmoqda.

Albatta, ushbu jinoyatni sodir etgan shaxslarga nisbatan qonuniy jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralari ko‘rib borilyapti. Chunki, bu illatga nisbatan o‘z vaqtida barham berilmas ekan, fuqarolarning qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlariga zarar yetishi davom etaveradi.



PORA ORZULARNI YONDIRGAN «CHIPTA»

Achinarlisi, ba’zi fuqarolarimiz muqaddam firibgarlik jinoyatini sodir etgani uchun sudlangan bo‘lsa-da, go‘yoki ushbu illatni o‘ziga kasb qilib olgandek kelgusida yana qayta jinoyatga qo‘l urishmoqda.

Jinoyat ishlari bo‘yicha Izboskan tuman sudining navbatdagi sud majlislarining birida xuddi shunday shaxslardan biri ilgari aynan shu kabi firibgarlik jinoyatlari uchun jazo o‘tab chiqqanidan va ikkinchi jinoyati uchun hali jazo o‘tayotganidan o‘ziga tegishli xulosa chiqarmasdan qasddan yana takroran firibgarlik jinoyatlari sodir etganligi uchun Izboskan tumanida yashovchi fuqaro Gulrux Eshonovaga nisbatan jinoyat ishi ochiq sud majlisida ko‘rib chiqildi.

Bu gal u o‘zi kabi muqaddam firibgarlik jinoyatini sodir etib, sud tomonidan berilgan jazoni o‘tayotgan Barno O‘rmonova bilan bir guruh bo‘lib birlashadi. Ular “ishga joylab qo‘yaman”, deb odamlarni aldab, ko‘pchilikni chuv tushirdi.

Gulrux 2022-yilning avgust oylarida Izboskan tumani shoshilinch tez yordam bo‘limida ishlovchi Dilnura bilan tanishib qoladi. Gulrux uning ishonchiga kirish maqsadida tanishlari borligini, agarda tibbiyot birlashmasiga ishga kirmoqchi bo‘lgan shaxslar bo‘lsa unga aytishini ma’lum qiladi.

2023-yilning mart oyida Izboskan tumanida istiqomat qiluvchi ikki nafar Gulxayo va Hamidalarni Izboskan tuman tibbiyot birlashmasiga hamshiralik lavozimiga ishga kiritib qo‘yish uchun Dilnura orqali har biridan 500 dollardan Izboskan tuman tibbiyot birlashmasida oladi. U jami 1000 AQSH dollari miqdoridagi pul mablag‘larini o‘zining shaxsiy ehtiyojlari uchun sarflab yuboradi.

2023-yilning iyun oyida tanishi Barno bilan birga Dilnuraning boshqa ikki nafar tanishlarini ham Izboskan tuman tibbiyot birlashmasiga hamshiralik lavozimiga ishga olib kirib qo‘yishlik masalasini ijobiy hal etib berishini aytib, ulardan jami 800 AQSH dollari va 500 ming so‘m pullarni oladi.

So‘ngra ushbu pul mablag‘larini Barno bilan 400 AQSH dollaridan teng bo‘lishib, so‘ngra ushbu pul mablag‘larini o‘zlarining shaxsiy ehtiyojlari uchun sarflab yuboradi.

2023-yil 16-avgust kuni Dilnura Gulruxga telefon qiladi:

-Opa, yana ikki tanishim ham hamshiralikka kirmoqchi.

-Bo‘ldi, hal qilamiz. Hozir qayerdasiz?

-Ishxonadaman. O‘zingiz qayerdasiz?

-Men Andijon shahridaman. Yarim soatlarda yetib boraman.

Shundan so‘ng, u Barnoga qo‘ng‘iroq qiladi:

-Qayerdasiz?

-Uydaman. Tez TTBga chiqing. Dilnura telefon qildi. Yana ikki qizni hamshiralikka joylash kerak ekan.

-Hozir 15-20 daqiqalarda o‘sha yerda bo‘laman.

Ular soat 15:00 lar chamasi Izboskan tuman tibbiyot birlashmasiga kelib Dilnura bilan uning ish joyida ko‘rishgani, o‘zaro suhbatlari davomida Dilnura ularga ikki nafar tanishlari Izboskan tuman tibbiyot birlashmasiga hamshiralik lavozimiga ishga kirmoqchi ekanliklarini aytadi.

-Bularni ishga joylashni qanday qilib hal qilasizlar?

-Meni oblzdravda tanishim bor. O‘sha orqali hal qilaman, - deydi Barno. Shundan keyin Dilnura 1000 dollarni Barnoga beradi. Barno olgan pullaridan 100 dollarini Dilnuraga qaytarib beradi.

-Avvalgi olganlarimizni pullari hisobidan qaytaryapmiz, - deydi.

Ularning harakatlaridan shubhalangan ayol mazkur holat yuzasida huquq tartibot idoralariga ariza bilan murojaat qiladi. Ikki firibgar ayol pullarni olgan vaqtida huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan ushlandi. Ularga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atiladi.

Sud hukmiga ko‘ra, Gulrux Eshonova va Barno O‘rmonovalar Jinoyat Kodeksi 168-moddasi 3-qismining “b” bandi va 28, 211-moddasi 2-qismining “a” bandi bilan aybli deb topildi.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 60, 61-moddalariga asosan tayinlangan jazoga jinoyat ishlari bo‘yicha Izboskan tuman sudining hukmi bilan tayinlanib hozirda o‘talmagan jazo muddatlarini o‘zaro qisman qo‘shish yo‘li bilan har ikkisiga uzil-kesil o‘tash uchun 5 yilu 2 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

A.NAZIRBEKOV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha Izboskan tuman sudining raisi.

KORRUPSIYAGA BARHAM BERISH IQTISODIYOTIMIZNING JADAL RIVOJLANISHINI TA’MINLAYDI

(Davomi. Boshi 1-betda).

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sirasiga aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish kiradi. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash ham shular jumlasidandir.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashuvchi vakolatli organlar tizimi keltirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar, Adliya vazirliklari, Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlaridir. Qonunga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonun hujjatlariga asosan boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Qonunda ko‘rsatib o‘tilgan organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish doirasida amalga oshiradigan ishlari aniqlashtirildi. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi o‘z vakolatlari doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruvni, dastlabki tergovni, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshiradi.

Qonundagi e’tiborli jihatlardan yana biri, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning ishtirok etishi mexanizmlari belgilanganidir. Zero, bu institutlar jamiyatda jamoat nazorati qaror topishida, adolat muvozanati ta’minlanishida o‘ziga xos o‘rin tutib kelmoqda. Ularning jamiyat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi korrupsiya illatiga qarshi kurashishda ishtirok etishi shu yo‘nalishdagi faoliyat samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

Qayd etib o‘tish kerakki, qonun iqtisodiyotimizda muhim o‘rin tutayotgan tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlari muhofazasini yanada kuchaytirdi. Davlat organlarining nazorat-tekshiruv vazifalari yanada maqbullashtirilmoqda. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish tizimi takomillashtirilib, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rilyapti. Bu choralar mamlakatimizda qulay biznes muhiti mustahkamlanishi, tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqish yanada kuchayishiga keng yo‘l ochadi, iqtisodiyotimizning jadal rivojlanishini ta’minlaydi.

Dilbarxon ABDUMAJIDOVA,
“Adolat mezoni” muxbiri.

UMR DAFTARIDAGI BEZAKLAR

(Davomi. Boshi 1-betda).

O‘quvchilik yillaridayoq maktabda bo‘lib o‘tgan tadbirlar haqidagi axborotlar, kichik hikoya va she’rlari bilan viloyat gazetasining kichik muxbiri, bo‘lajak jurnalist sifatida tanila boshladi. Maktabni a’lo baholarga tamomlab, 1978-1983-yillarda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil oldi.

Kitobdan bosh ko‘tarmaydigan, dars qoldirmay, doim vazifalarni o‘z vaqtida bajaradigan, tabassumi samimiy, muomalasi yoqimli Zumradxon talabalikning ilk yillaridayoq ko‘pchilik yigitlarning e’tiboriga tushdi. Ular orasida esa andijonlik chapdast va chapani yigit G‘olibjon g‘olib keldi, Zumradxonning ko‘ngliga yo‘l topdi, e’tiborini qozondi. Ularga hamma havas qildi, ikkisining muhabbati yuraklarga mustahkam joylashdi, bu go‘zal ishq qissasi 1984-yilning yozida nikoh bilan mustahkamlandi.

O‘sh shahrida tug‘ilgan Zumradxon Abdullayeva taqdiri ilohiy sabab Andijon viloyatining Oltinko‘l tumanida hurmat topgan ziyoli xonadonga kelin bo‘ldi. Qaynonasi fermer, paxtakor, g‘allakor, mehnatning konida yashab, elda aziz bo‘lgan mashhur dehqon — O‘zbekiston Qahramoni Siyosatxon opa Abdullayeva edi. Ona o‘g‘lidan umr yo‘ldosh tanlashda adashmaganligi uchun quvondi. Zumradxonni kelin emas, qiz deb qabul qildi. Baxt qo‘rg‘oni ishonch bilan bunyod bo‘lgan bo‘lsa, muhabbat mevalari — farzandlar Elyorbek, Zilolaxon, Husnoraxon va Yulduzxonlar bilan mukammallashdi.

Zumradxon opa katta oilaga kelin bo‘lgan ilk kunlari qaynonasi farzandlariga tanishtirarkan: “G‘olibjon to‘ng‘ich o‘g‘lim bo‘lsa, Zumradxon sizlarga endi opa bo‘ladi”, dedi. Mana shunga ham qirq yildan oshyaptiki, hamon o‘sha xonadonning opasi bo‘lib izzat-hurmatda yashamoqda. Qaynotasi — shifokor Tolibjon akaning oq xalatini, qaynonasi — fermer Siyosatxon opaning dala etigini doim ozoda tutdi, ularga mehrli so‘zi, shirin taomini ilindi, xizmatlarini qilib charchamadi. O‘sha mehnatlari sabab bugun elda aziz bo‘lganligi bejiz emasdir.

Zumradxon opa G‘olibjon aka bilan 40-yildan buyon birgalikda hayot kechirib, hurmat va izzatda yashab kelmoqda. Ikki ijodkorning oilada so‘zi, qarashlari bir xil bo‘lsa-da, ijod borasida G‘olibjon aka dadil fikrli, haqiqatga tik qaray oladigan, nohaqlikka bardosh qilmaydigan, keskir bo‘lsa, Zumradxon opa ma’naviyatli, og‘ir-bosiq, andishali, mehrli va samimiyligi bilan elga tanildi.

Dastlab ish faoliyatini Oltinko‘l tuman gazetasida muxbirlikdan boshlagan qahramonimiz keyinchalik viloyat xotin-qizlar nashri bo‘lgan “Iqbol” gazetasida muxbir, mas’ul kotib, muharrir o‘rinbosari bo‘lib faoliyatini davom ettirdi. Shu yillar mobaynida “Oila va jamiyat” gazetasining viloyat bo‘yicha muxbiri sifatida faoliyat olib bordi. Uning “Halollik sabog‘i”, “Bolangiz boy bo‘lmoqchi”, “Yordam puliga yordam kerakmi?”, “Bilimimni pulga sotmayman”, “Ko‘nikishmi… yoki loqaydlik?”, “Erkak kishiga erkakcha ish yarashadi”, “Ayollarni uyga qaytarish kerakmi?”, “Muqaddas saltanat”, “Men ham uyda o‘tirgim keladi” kabi dolzarb maqolalari muhokama va munozaralarga sabab bo‘ldi.

So‘zdan dur yasab, Andijon xalqining e’tiboziga erishgan qahramonimizning mehnatlari munosib baholandi va ko‘plab tanlovlar g‘olibi bo‘ldi, qator kitoblar muallifiga aylandi.

“Mohlaroyim izdoshlari”, “Qalam uchidagi joziba”, “Maftunkor sirtmoq” kabi jamoatchilik to‘plamlarida she’r va hikoyalari chop etildi. “O‘sh tog‘iga qorlar tushganda” va “Yuragimda yashagan dunyo” kitoblari muallifi Zumradxon Abdullayeva O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi hamdir.

Shuningdek, faoliyati davomida ijodkorlar o‘rtasida o‘tkazilgan “Ayol va jamiyat”, “O‘tkir qalam”, “Yilning eng faol jurnalisti”, “Qadri baland bo‘lsin o‘zbek ayolin!” kabi viloyat, respublika tanlovlarida 1-o‘rinni egallagan bo‘lsa, viloyat Xotin-qizlar hamda Respublika Xotin-qizlar qo‘mitasining “Faxriy yorliq”lari va “Tashakkurnoma”lari bilan ham taqdirlandi.

Men o‘zim bilgan, kuzatgan, o‘z “men”ini asray olgan, vijdonini bayroq qilib yashayotgan fidoyi, zamondosh ayollarimizdan biri, Andijonning suyukli keliniga aylangan, mohir jurnalist, qalamida ko‘nglini aks ettirgan ijodkor Zumradxon Abdullayeva haqida so‘z aytdim.

Qahramonim ayollik vazifalarini sadoqat bilan ado etib, G‘olibjon aka bilan birgalikda yaxshi farzandlarni voyaga yetkazdilar. O‘g‘li Elyorbek iqtisodchi, kelini Husnoraxon maktabgacha ta’lim fidoyisi, Zilola ota-ona izidan borib, jurnalist bo‘ldi. Husnoraxon esa tumandagi 42-maktabda ingliz tili fani o‘qituvchisi bo‘lsa, Yulduzoy 12-maktabda kompyuter saboqlaridan dars beradi. Bu oila to‘rt nafar farzand, bir kelin va uch nafar kuyov bilan mustahkamlandi, o‘n bir nafar nabira bilan sayqallandi.

Aslida, insonlar ham, jamiyat ham oila mustahkamligi tarafdori. Turli sharoitda o‘sgan ikki insonning juft bo‘lib yashashi kishidan sabr va juda katta mehnatni talab qiladi. Buning uchun, kerak bo‘lsa, odam o‘zini butunlay o‘zgartirishiga to‘g‘ri keladi, hatto orzularini qurbon qilishga rozi bo‘ladi.

Biz tanglayi yaxshi so‘z, tarbiya bilan ko‘tarilgan xalqmiz. Ovoz yetgan joygacha oilaning muqaddasligini, farzandlar kamoli jamiyatimiz kelajagini belgilashini takrorlashdan, Zumradxon opa kabi oilani kaftida, jamiyat ishini yelkasida ko‘targan fidoyi insonlarni ibrat qilib ko‘rsatishdan charchamaymiz.

Feruza ORIPOVA,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi.



IZBOSKANLIK PAXTAKORLARNING AHDI QAT’IY

Yurtimizning barcha joylarida bo‘lgani kabi ayni kunlarda Andijon viloyatida ham paxta yig‘im-terimi qizg‘in pallaga kirgan. Viloyat paxtakorlari belgilangan yillik marra sari kundan kunga yaqinlashib bormoqda. Paxta xirmonining yuksalishiga barcha tumanlar munosib hissa qo‘shmoqda.

Izboskan tumanida dehqonchilik, ayniqsa, paxtachilikda o‘ziga xos tajriba maktabi shakllangan. Shu bois ham, joriy yilda tuman paxtakorlari tomonidan har yildagidan-da mo‘l hosil yetishtirildi.

Tumanda joriy yilda “Andgoldgroup” paxta to‘qimachilik klasteri, shuningdek, 173 ta fermer xo‘jaligi tomonidan jami 6 ming 487 gektar maydonning 865 gektariga mahalliy, 5 ming 622 gektariga Xitoyning “Xin Lu Zao 52” navli chigit urug‘i ekilib, mo‘l hosil yetishtirildi. Tuman paxtakorlari bu yil 29 ming 880 tonna paxta yig‘ib-terib olishni rejalashtirgan.

– Tumanda bu yil paxtadan har yildagidan ham mo‘l hosil yetishtirildi, – deydi Izboskan tumani hokimi Abrorbek Ahmadaliyev. – Yetishtirilgan hosilni qisqa muddatlarda, sifatli yig‘ib-terib olish, belgilangan ishlarini uyushqoqlik bilan tashkil etish maqsadida 44 ta terim otryadi shakllantirildi. Klaster korxona ishchilari, fermer xo‘jaligi a’zolari, uy bekalari, uyushmagan aholi vakillari hamda ko‘ngillilardan tashkil etilgan otryadlarning har biriga mas’ullar, zarur texnika vositalari biriktirilgan. Shu kunlarda hosilni yig‘ib-terib olish ishlari qizg‘in olib borilmoqda.

Bundan tashqari, terimga 19 ta zamonaviy paxta terish kombaynlari jalb etilgan.

Tumandagi 29-terim otryadiga Guzar, Istiqlol, To‘rtko‘l mahallalaridan 150 nafarga yaqin ko‘ngilli a’zolar birlashgan. Ayni kunlarda mazkur otryad a’zolari Abduxalil Nazirov rahbarlik qilayotgan “To‘rtko‘l fayz istiqloli” fermer xo‘jaligi dalalarida yetishtirilgan hosilni terib, yig‘ib olmoqda.

Sayyora Usmonova, Maxfuza Boltaboyeva, Shaxnoza G‘aniyeva, Munojatxon Xojibekova, Omadxon Jo‘rayeva singari otryadning ilg‘or terimchilari kuniga 100-120 kilogrammdan paxta terib, barchaga ibrat bo‘lmoqda. Terilgan paxta uchun terimchilarga dalaning o‘zida kunlik pul berilmoqda.

– Dalalarda hosil mo‘l, har kuni 100-120 kilogrammdan paxta teryapman, – deydi ilg‘or terimchilardan biri Munojatxon Xojibekova. – Sharoitlar yaxshi, har kuni tushlikka shiyponda issiq ovqat tashkil etiladi. Uyda bekor o‘tirgandan ko‘ra, terimda qatnashib oilamizga qo‘shimcha daromad kirityapmiz. Terimning birinchi o‘n kunligida 2,5 million so‘mga yaqin pul oldim. Yaxshigina daromad olish bilan birga, yurtimizda paxta xirmonining yuksalishiga ham hissa qo‘shyapmiz.

Terimda qatnashayotgan hasharchilar uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Ularning dalaga borib kelishlari uchun transport tashkil etilgan, tushlikka esa xo‘jalikning dala-shiyponida issiq ovqat tayyorlab berilmoqda.

– Otryadimiz a’zolari terimda faollik ko‘rsatmoqda, – deydi tumandagi 29-terim otryadi rahbari, “Guzar” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Ikromjon Mamajonov. – Otryadimiz tomonidan kuniga 6-7 tonna hosil terilib, paxta punktlariga yuborilmoqda. Fermer xo‘jaliklari tomonidan terimchilarga zarur sharoitlar yaratib berilgan. Nasib etsa astoydil mehnat qilib, hosilni qisqa muddatlarda terib olamiz. Otryadimizga biriktirilgan fermer xo‘jaliklarining shartnoma rejalarini ortig‘i bilan bajarishiga, paxtakorlarimizning yuzlari yorug‘ bo‘lishiga qo‘limizdan kelganicha yordam beramiz.

“Sharq yulduzi” massividagi “To‘rtko‘l fayz”, “To‘rtko‘l Abdurashid”, To‘rtko‘l zamin bo‘stoni” fermer xo‘jaliklari dalalarida yetishtirilgan paxta hosili Abdurashid Komilov rahbarlik qilayotgan 25- terim otryadining 250 nafardan ziyod a’zolari tomonidan terib olinmoqda.

Otryadning Odinaxon Samsaqova, Nasibaxon Sopaxonova, Karimaxon Nasriddinova singari terimchilar kuniga 120-130 kilogrammdan paxta terib, barchaga ibrat bo‘lmoqda.

Terimchilar, umuman, paxtakorlarning kayfiyati a’lo, shijoatlari baland. Ular yetishtirilgan hosilni o‘z vaqtida, sifatli terib-yig‘ib olib, nafaqat tuman, balki viloyat, respublika paxta rejasini bajarishiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shishga qat’iy ahd qilishgan.

“Yuksak zamin” fermer xo‘jaligi ham shu kunlarda paxta topshirish bo‘yicha yillik shartnoma rejasini bajardi. Izboskan tumaniga safarimiz kuni erishilgan muvaffaqiyat munosabati bilan xo‘jalik dala-shiyponida tashkil etilgan tadbir ustidan chiqdik.

– Bugun paxta topshirish rejasini ortig‘i bilan bajardik, – deydi “Yuksak zamin” fermer xo‘jaligi rahbari Akramjon Burxonov. – Joriy yilda 20 gektar maydonga Xitoyning "Xin Lu Zao 52” navli chigit urug‘ini ekdik. Astoydil mehnat qildik, o‘zimizning texnikalarimiz bor, shu bois, belgilangan agrotexnik tadbirlar o‘z vaqtida, sifatli bajarildi. Natija esa yomon bo‘lmadi, mo‘l hosil yetishtirildi. Birinchi terimdayoq rejani ortig‘i bilan 110 foizga bajardik, gektaridan 52,2 sentnerdan hosil olindi. Shu munosabat bilan bugun tushlikda a’zolarimiz, terimchilar kayfiyatini yanada ko‘tarish uchun bayramona dasturxon uyushtirdik.

Darhaqiqat, tushlikdan keyin o‘tkazilgan tadbir xo‘jalik a’zolari uchun haqiqiy bayramga aylandi. Xo‘jalik suvchisi Alisher Sarimsoqovga 74 yoshli onasi Munojatxon Sarimsoqovani umra safariga yuborish uchun sertifikat, shuningdek, xo‘jalik ish yurituvchisi, mexanizatori va bir nafar ishchisi skuter, 2 nafar a’zosi esa velosiped bilan mukofotlandi. Bundan tashqari, yana qator a’zolarga, terimchilarga konditsioner, televizor va boshqa turli esdalik sovg‘alari topshirildi.

– Ochig‘i, bunday e’tiborni kutmagan edim, quvonchdan ko‘zlarimga yosh keldi, – deydi xo‘jalik suvchisi Alisher Sarimsaqov. – Xo‘jalikda ish boshlaganimga o‘n yildan ortdi. Yaxshi ishlab onamni hajga olib boraman, deb niyat qilar edim. Mana, Yaratganning marhamati, yaxshilarning sharofati bilan niyatim ijobat bo‘ldi. Yaxshi niyat, halol-poklik, mehnat insonni niyatiga yetkazishiga yana bir bor amin bo‘ldim.

Xo‘jalik a’zolari, terimchilar e’tibordan, topshirilgan sovg‘a-salomlardan behad mamnun. Ulardagi mamnunlik, ko‘tarinkilik shubhasiz, bundan keyingi terim suratini yanada oshirishga yordam beradi.

Tuman paxta dalalarida terimda qatnashayotgan kim bilan suhbatlashmaylik, ularning kayfiyati, shijoati yuqori ekanligiga guvoh bo‘ldik. Shu bois ham, bugungi kunga qadar tumandagi 40 dan ortiq fermer xo‘jaliklari paxta topshirish yillik shartnoma rejasini uddalashdi.

Ayniqsa, “Sharq yulduzi” massividagi “To‘rtko‘l Abdurashid”, Tillaboyev massividagi “Yuksak zamin paxtazor rivoji”, “Abdulaziz Bo‘stonov”, N.Jo‘rayev massividagi “Chuvama saxovati”, Oxunboboyev massividagi “Lo‘g‘imbek ishonchi”, “O‘zbekiston” massividagi “Moygir zamin sardori” singari o‘nlab fermer xo‘jaliklari bu borada namuna bo‘lmoqda.

Izboskanlik paxtakorlarning ahdi qat’iy, yetishtirilgan mo‘l paxta hosilini nest-nobud qilmasdan oxirgi misqoligacha yig‘ishtirib olish maqsadida terimni uyushqoqlik bilan davom ettirmoqda.

Faxriddin UBAYDULLAYEV,
Zuhriddin UMRZOQOV (surat),
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zolari.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳри, С.Обидов кўчаси, 25/1-уйда яшаб 2014 йил 8 сентябрь куни вафот этган марҳум **НУРМАТОВ АРАПЖОН МАЛИКОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, 3-кичик даҳа, 38-уй, 13-квартирасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Г.Х.Киргизбаев нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, 2-кичик даҳа, 6 уйнинг 1-квартирасида яшаб, 2024 йил 13 июль куни вафот этган марҳум **МИРЗАЕВА УМИДАХОН ҚОДИРЖОН ҚИЗИ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, А.Темур шох-кўчаси, 1/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус К.Ш.Жалолиддинов нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, 3-кичик даҳа, 14-уй, 2-квартирасида яшаб, 2024 йил 4 февраль куни вафот этган марҳум **SULEYMANOVA ANTONINA MAXKAMOVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Машраб кўчаси, 26-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Т.Қосимов нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, Хидирша МФЙ, Бахши кўчаси, 38-уйда яшаб, 2017 йил 20 январь куни вафот этган марҳум **NADIROV ABDIPATTA XXX,**

Хонобод шаҳри, Фозилмон МФЙ, Коинот кўчаси, 51-уйда яшаб, 2022 йил 10 август куни вафот этган марҳум **XOLDAROV ADASHBOY XXX,**

Хонобод шаҳри, Мадрахимов МФЙ, Фузулий кўчаси, 63-уйда яшаб, 2023 йил 19 декабрь куни вафот этган марҳум **URUNBAYEVA MANZURAXON ISMAILJANOVNA**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2022 йил 25 январь куни вафот этган марҳум **KARIMOV MAMARASUL XXX,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2018 йил 31 июль куни вафот этган марҳум **NURMATOV ALIM GAFFAROVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Н.Акбаров нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2011 йил 30 январь куни вафот этган марҳум **МАМАДАЛИЕВ УКТАМЖОН,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 27 март куни вафот этган марҳум **KUCHKAROV SAFARALI TUYGANOVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2010 йил 3 январь куни вафот этган марҳум **БОЛТАЕВА САНИЯ АДЕЛЬШЕВНА**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Ровот МФЙ, Қадрият кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 11 ноябрь куни вафот этган марҳум **MATXOLIQOV ISKANDAR NASIRDINOVICH,**

Избоскан тумани, Дўстлик МФЙ, Боғаро кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 26 март куни вафот этган марҳум **МИРЗАЖАНОВ ДОСТОНБЕК МИРЗАБАХРАМ ЎҒЛИ,**

Избоскан тумани, Гуркиров МФЙ, Ипак йўли кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 30 декабрь куни вафот этган марҳум **ЭРГАШЕВ МАРИБЖОН АБДУРАХМОНОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Истиқлол МФЙ, Ором кўчаси, 45-уйда яшаб, 2025 йил 21 март куни вафот этган марҳум **ТУРАБОЕВА ЗАМИРАХОН ЭРГАШОВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Д.С.Хатамова нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Тўлға МФЙ, Қора тепа кўчаси, 82-уйда яшаб, 2017 йил 4 ноябрь куни вафот этган марҳум **МАРАХИМОВ МУХИТДИН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобур шоҳкўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 20 октябрь куни вафот этган марҳум **НАЗАРОВ АЗИМЖОН НЕМАТОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Учкўза МФЙдаги уйда яшаб, 2002 йил 7 август куни вафот этган марҳум **АШУРОВ УРИНБОЙ,**

Пахтаобод тумани, Маърифат МФЙдаги уйда яшаб, 2022 йил 16 ноябрь куни вафот этган марҳум **БАХРАМОВ БУРХАНЖОН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Озод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига,

Қўрғонтепа тумани, Нодира МФЙ, Дўрмон кўчаси, 59-уйда яшаб, 2020 йил 11 сентябрь куни вафот этган марҳум **UMARALIYEV RUSTAMALI**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Қўрғонтепа тумани, Мустақиллик кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Б.Мамадалиев нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Қозиқўрғон МФЙда яшаб, 2020 йил 22 декабрда вафот этган марҳум **АБДУРАХИМОВА ФОТИМАХОН**,

Шаҳрихон тумани, Қозиқўрғон МФЙда яшаб, 2020 йил 2 январда вафот этган марҳум **ШЕРМАТОВ ХУСАНБОЙ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

BILDIRUV

O‘RILGAN MAKKAJO‘XORI SILOSI SOTILADI!

7553 harbiy qism yordamchi xo‘jaligi tasarrufida mavjud bo‘lgan
6,1 gektar yerga ekilgan makkajo‘xori silosi 2025-yilning
16-oktyabr kunidan 26-oktyabr kunlari
oralig‘ida o‘rish ishlari tashkillashtiriladi.
O‘rilgan makkajo‘xori silosi mahsuloti sotiladi.
Oluvchilarni hamkorlikka chaqiramiz.
Narxi kelishilgan holda.
Manzil: Oltinko‘l tumani
Mo‘ljal: “Andijon” aeroporti orqa tomoni
Murojaat uchun telefon: 99-556-95-10, 98-270-54-04



ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy.
Telegram: (+998 99) 995-19-66
E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi.
«ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi.
Chop etishga topshirish vaqti 10.10.2025-yil, soat 11.00.
Chop etishga topshirildi 10.10.2025-yil, soat 14.00.
Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy.
Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № 11966. 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li